

YANGI O'ZBEKISTONDA TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARINING IJTIMOIIY- AXLOQIIY QARASHLARINING TARBIYAVIIY AHAMIYATI

Mustayev Ruslan Damirovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Orcid: 0009-0000-8944-4975

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22669724>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 8-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 9-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Maqolada Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy-axloqiy qarashlarining germevntik asoslari, Yangi O'zbekistonda Temuriylar davri mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar:

Temuriylar davri, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-axloqiy qarashlar, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, tarbiyaviy, faoliyat, germevntik asos, tarixiy-falsafiy tahlil.

Xalqimizda ming yildan buyon shakllanib kelgan sharqona odob-axloq meyor va mezonlari, milliy qa-driyatlar va urf-odatlar, u xoh ota-ona va farzand, farzand va ota-ona, ustoz va shogird o'rtasidagi muno-sabatlarda ko'rinsin, xoh qo'ni-qo'shnicilik va boshqa ijtimoiy munosabatlarda o'z aksini topsin, aslida tasavvuf ta'limotidan sarchashma oladi. Tasavvuf fal-safasi va ijtimoiy taraqqiyot haqida gap borar ekan, tasavvufshunos Najmiddin Komilov "Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug' ajdod- larimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gu-noh, soya va nur, rahmon va shayton, xayru sharr chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligi-ni tushunishga jiddiy ahd qilganlar" - deydi va ta-savvuf falsafasi mohiyatidan kelib chiqib, insonning murakkab, ziddiyatli olami hamisha tarbiyaga muhtoj ekanligini aytadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy, madaniy sohalaridagi islohotlar natijasida dunyoga mashhur allomalarimiz ma'naviy merosini, shuningdek, diniy-irfoniy, tasavvufiy ta'limotlari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz". Bu borada naqshbandiya ta'limoti davomchisi Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosidagi tasavvufiy-falsafiy, teologik, aksiologik qarashlar mohiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan yoshlar ongiga singdirish borasidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va ilmiy asoslangan mezon va mexanizmlarini ishlab chiqish obyektivzaruratga aylanmoqda.

Tasavvuf ta'limoti Movarounnahrda mahalliy sharoitlarga moslashgan holda rivojlanib bordi. Tasavvufdagi shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat kabi insonni kamolotga yetaklovchi g'oya va tushunchalar Movarounnahr xalqlari ijtimoiy hayotiga kirib keldi va Xorazmda Kubraviya, Turkistonda Yassaviya, Buxoroda Xojagon-Naqshbandiya tariqatlari shakllandi.

Naqshbandiya ahli sunna e'tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo'lib, xufiy (osoyishta holatdagi) zikrga asoslangan. "Dil ba yoru, dast, ba kor", "Qalbing Allohda, qo'ling ishda" bo'lsin shiorini olg'a surish bilan naqshbandiya mavjud dunyo nozu ne'matlaridan oqilona foydalanib, insonlarni halol mehnat qilishga, bilim olishga chaqirdi. Naqshbandiya tariqatining nazariy, amaliy jihatlarini boyitib, bu ta'limotning mashhur bo'lishiga ulkan hissa qo'shgan, rivojlantirgan tarixiy shaxs Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490 yy.)dir. Xoja Ahror Toshkent, Bog'istonda Xoja Mahmud oilasida dunyoga kelgan, ona tomonidan Shayx Xovandi Tohur avlodidan hisoblanadi. Xoja Ahror boshlang'ich ta'limni Toshkentda olib, so'ngra Samarqand madrasalarida o'qishni davom ettiradi. Manbalarda Xoja Ahror Valiyning ajdodlari ilmi va ziyoli kishilar ekanliklari qayd etilgan va bu Xoja Ahror Valiy ma'naviy kamolotida ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xoja Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining davomchisi

Mavloni Shayx YA'qub Charxiy ziyoratida bo'lib, tariqat va shariat ilmini mukammal egallab, uning vositasida Bahouddin Naqshband qo'llarini uvaysiy (g'oyibona) ravishda olib, ma'naviy-ruhiy ustoz sifatida qabul qilgan.

Naqshbandiya ta'limoti va naqshbandiya tariqatining Ahroriyashahobchasi asl mohiyatiga ko'ra, tasavvufdagi tarkidunyochilik qarashlarini mo'tadillashtirdi, isloh qildi. Naqshbandiya-ahroriya ta'limotining bunyodkorlik g'oyalari (halollik, axloqiy poklik, ma'naviy yetuklik, mehnat qilish, kasb tanlash, ijtimoiy faollik) bugungi kunda milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari bo'lgan komil inson, yurt tinchligi, vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiladigan ilg'or g'oyalarga ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, ushbu ta'limotning hayotbaxshligini ko'rsatadi. Xoja

Ahror Valiy – buyuk tarixiy shaxs. U jamiyatni siyosiy jihatdan sog'lomlashtirishga intilgan va kishilarni axloqiy yetuklikka da'vat etgan, bundan ko'zlangan maqsad esa tariqat manfaatlarini xalq manfaatlariga uchun xizmat qildirish, to'plangan boylikni xalqning eng zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun sarflashdan iborat bo'lgan. Xoja Ahror Valiy naqshbandiylik tariqatining nazariy va amaliy takomillashuvi yo'lidagi ulkan sa'y-harakatlari tufayli "murshidi ofoq", ya'ni "olamning piri komili" sifatida shuhrat topdi.

Xoja Ahror Valiy falsafiy-tasavvufiy qarashlarida islom qadriyatlarini mahalliy ma'naviy-axloqiy odatlar bilan uyg'unlashtira olgan buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. U o'zining asarlarida meyor, adolat, halollik, nafs, insof, imon, e'tiqod axloqiy qadriyatlarga oid; odob, axloq, tarbiya, saxiylik, o'zaro hurmat, sabr, hasad, vafodorlik, yaxshilik va yomonlik masalalarini, umuminsoniy qadriyatlarga oid; tinchlik, do'stlik, ogohlik, hushyorlik, hamjihatlik, diniy bag'rikenglikka oid falsafiy qarashlarini ta'kidlab o'tgan. Jumladan, mutasavvifning "Risolayi Volidiya" asari inson va uning kamolotga yetishish yo'llari, insonni zohiran va botinan axloqli bo'lishi, ijtimoiy adolat, odamiylik, bag'rikenglik, insonparvarlik, g'oyalarini singdirishda muhim o'rin egallaydi. Xoja Ahror Valiy inson komilligining shartlari deb quyidagilarni ta'kidlaydi: insonning elga madadkor bo'lishi, komillikka intilish bilan Alloh muhabbatini qozonishi, ko'nglini Allohning oynasi deb bilishi, shukr qilib yashashi, doimo ogoh bo'lishi, vaqtning qadriga yetishi va hokazo.

Xoja Ahror Valiy tana, ruh, qalb, aql, nafs haqida "Risolai Havroiya" asarida alohida to'xtalib, insonni tarifi bilan olamdagi butun ilohiy daraja va martabada uning vujudiga o'xshashi yo'q va barcha ko'rinishlar unda aks etgan deb hisoblaydi. Xoja Ahror Valiy tana va ruhning o'zaro bog'liq ekanligini va ularning birligi inson tirikligining asosi ekanligini, ruhning moddiy olamdagi sog'lom kamoloti botiniy olam uchun naqadar muhimligini ta'kidlaydi. Tana ruh va qalbg'a buyunishi kerakligi, qalbnihis qilish, anglash bilish darajasi cheksizligi va aqlning bilish darajasi chegaralanganligini ta'kidlaydi. Insoniylikni qalb, ruh bilan bog'laydi va asosiy insoniy mezon qalb ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, inson qalbi ilohiy haqiqatni, ruhiy va moddiy olamni birlashtiruvchi markazdir. Xoja Ahror Valiy o'z falsafiy qarashlarida inson nafaqat jism, balki ong, aql, idrok, iroda, ilm, qudrat mujassam bo'lgan bir butun – ilohiydir va ularni bog'lab turuvchi muvozanat inson qalbidir, – degan xulosaga kelgan. Qalb butun inson tanasini boshqaradi. Xoja Ahror Valiyning inson mohiyatini his-tuyg'u, sezgilar, aql tashkil qilishi, ular orqali anglash, bilish, sezish, tushunish, idrok etishini ta'kidlaydi.

Mutasavvif insonni, (antropologik, ontologik, metafizik jihatdan) borliq, tana, ruh, jon, ong, aql, qalb, nafs o'zaro muvozonatda bo'lib, ular o'rtasidagi jarayonlarini (deterministik – bog'liqlik) tushuntirishga harakat qilgan.

Xoja Ahror Valiy so'fiylarni – nafs o'lik, qalbi tirik, – deb ta'riflagan. Mutasavvifning fikricha, insonda qalb va moddiy nafsmavjud bo'lib, ikkisi ham inson uchun muhimdir. Meyoridan oshgan nafs nafaqat inson, balki jamiyat uchun ham zararlidir. Mutasavvif nafs masalasini yoritishda xulq, axloq va odobga e'tibor berib, nafsni jilovlashda eng samarali usul sabr-qanoatdir, ya'ni jismoniy-ruhiy, ijtimoiy tushkunliklarning davosi sabrdir. Insonda axloq, odob, sabr, ilm “nafsni” tarbiyalovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Ollohni tanish nafs va axloqni tarbiyalaydi. Xoja Ahror Valiyning “Faqarot ul-orifiyn” asaridagi insonning zohiriy va botiniy tarbiyasi, qalb, nafs va ruh kamoloti, ustoz-shogird munosabatlari haqidagi qarashlari hozirgi kungacha barkamol, mehnatsevar, tarbiyali, axloqli, vatanparvar, fidoyishaxsni tarbiyalashda ijobiy natija berishi ta'kidlanadi. Tasavvuf ilmini Xoja Ahror Valiy “bahsi vujuddir” deb aytadi, ya'ni inson tanasi va ruhiyati haqida bahs yuritadi, insoniylik haqiqatini anglash, o'z nafsini tiyish, nafs yomonliklariga qarshi qanday kurashish yo'llarini o'rgatadi.

Tasavvuf ahli, xilvatda Haq bilan suhbatda bo'lganlar, ammo tariqat ahlining asosiy maqsadi faqatgina suhbat emas, balki, jamiyatda yo'qolib borayotgan, e'tiqod, insoniylik, poklik halollikni saqlab qolishni targ'ib qilish edi. Buni Xoja Ahror Valiyning: “Biz ilmlarimizni mangu o'lmaydigan abadiy tirik Zotdan oldik, orif inson so'zlovchining o'ziga emas, balki uning so'ziga qaraydi”, – degan dono so'zlari ham tasdiqlaydi. Mutasavvif laduniy ilm – ilohiy ilm, bu ilmni egallash uchun insonningo'zida tug'ma iste'dod ham bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Xoja Ahror Valiyning insonni ijtimoiy shakllantiruvchi aql, bilm, ilm, tarbiyaga oid falsafiy qarashlari ahamiyatli bo'lib, insondagi qalbning qo'riqchisi aql ekanligini va uni egallash uchun ilm zarurligini ta'kidlaydi. Xoja Ahror Valiy asarlarida ilm insonni ulug'lashini, olingan bilimni haqiqiyilmga aylantirib, undan foydalanish, xalqning og'irini yengil qilishkerakligi va ilm bor joyda taraqqiyot bo'lishini ta'kidlaydi.

Naqshbandiya tariqati hukmdorlar bilan ijobiy munosabat o'rnatdi va bu o'zgarish Xoja Ahror Valiy faoliyati bilan bog'liq ekanligini tariqat davomchisi Maxdumi A'zam “Tanbiyat us-salotin” risolasida ta'kidlagan. Movarounnahrda Xoja Ahror faoliyati jamiyatning turli kuchlari o'rtasidagi o'zaro murakkab munosabatlarni muayyan darajada barqarorlashtiruvchi omil vazifasini bajargan. “Rashahot”, “Silsilat ul-orifin”, “Tarixi Rashidiy” asarlarida Xoja Ahrorning tinchlikparvar siyosatiga dalil sifatida, uning qat'iy harakati va faol aralashuvi bilan uch hukmdor, Sulton Ahmad, Umar Shayx va Sulton Mahmudlar yarashtirib qo'yiladi. Siyosiy fitna va makkorliklar avjiga chiqqan mahalda Xoja Ahror raqiblarini hayron qoldiruvchi eng ishonchli vosita “sulhparvarlikdan” foydalandi, bu esa uning fuqarolar o'rtasida obro'sini oshirar, mavqeini yanada mustahkamlab borardi. Bu o'rinda professor A.N.Boldirevning XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hayotida Xoja Ahrorning roli xususidagi xulosasiga qo'shilmaslikning iloji yuq: Ikki qirq yillikni, ya'ni Ulug'bek va toj kiymagan hukmdor Xoja Ahror davrlarini qiyoslasak, Xoja Ahrorning tarixga olib kirgan yangiligi yaqqol namoyon bo'ladi: bu tinchlik, mamlakatning yuz minglab oddiy mehnatkashlari uchun jon kuydirilgan osoyishtalik edi.

Xoja Ahror o'ziga tegishli boylikni madrasa, xonaqoh va masjidlar qurish, mudarris, talabalar va xizmatchilarni moddiy ta'minlash, muhtojlarga xayr-ehson qilish kabi ishlarga sarf qilgan. Xoja Ahror Valiy tomonidan Samarqand, Toshkent, Kobulda madrasalar qurdirilganligi manbalardan ma'lum. Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida yozilishicha: “Xoja Ahror Valiy bilim egalarini sevar, majlisi hamisha olimlar bilan to'la edi va shu sababdan ilm ahli uchun u oliy madrasa soldirdi”. Akademik Boturxon Valixojayev bu madrasaning Samarqanddagi “Madrasayi Safed” ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Maxdumi A'zam, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Abu Said, Sulton Ahmad kabi o'z zamonasining yetuk allomayu sultonlari Xoja Ahror Valiy o'zlariga piru murshid deb bilganlar. Xoja Ahror Valiyning iqtisodiy hayotga oid mashhur fikri hamma davr uchun to'g'ri keladi: Voridotimiz sarfiyatimizdandir (daromadimiz xarajatimizdandir)

tarqatgan zakotlari va ushrlari olamni tutdi. Xoja Ahror Valiyning saxovatpeshaligi shu qadar bo'lganki, u ushr, zakotdan tashqari favqulodda soliqlarni oddiy xalq gardaniga yuklashdan ularni himoya etgan va aholiga solingan soliqlarni o'z hisobidan to'lagan.

Ta'kidlash lozimki, o'tgan yillar davomida O'zbekistonning turli hududlarida soxta tariqatchilar faoliyatining faollashgani, jumladan, Samarqandda "Qora sallalilar" yoki Naqshbandiya-Mujaddidiya, Andijonda Naqshbandiy – Shahrixoniy guruhlarida paydo bo'lgan. Ularning xatti-harakatlarida tarixiy so'fiyona tariqat qoidalariga zid g'oyalarni targ'ib qilish holatlari kuzatilmoqda. Bugungi kundagi tariqatchilarning o'ziga xos jihatlari shundaki, ular o'z izdoshlarining muntazam ko'payib borishi va o'z yetakchilari, "piralarini" ideal shaxs sifatida ko'rsatishga intiladilar. Ularning asosiy qismi marosimparastlik, mutaassibona qarashlar va asossiz da'volarga ergashuvchilardan iborat bo'lib qolmoqda.

Bugungi axborotlashgan zamonda, inson ongini egallash uchun kurash mavjud bo'lgan sharoitda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, islom dinidan g'arazli, siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinilayotgan bir paytda, Xoja Ahror Valiydek buyuk tarixiy shaxs va mutasavvifning hayot va faoliyatini, ma'naviy merosining mazmun-mohiyatini vatanimiz kelajagini yaratuvchi yosh avlodga ibrat tarzida taqdim etish, jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy barqarorligiga va osoyishtaligiga munosib hissa qo'shishdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 244.
2. Арабская книга в духовной культуре татарского народа. –Казань. 2003. –Б. 13
3. Ал-Афғоний, Жамолиддин Абдул Мухаммад. Ат-таъликат ъала шарҳ ал-ақоид ал-адудитта. Таҳқиқ Сайид Хади Хосрушахи. – Каир: Мактабат аш-шурук ад-давлийя, предисловие доктор Мухаммад Имары.
4. Дуктур Мухаммад Муъин. Фарҳанги Форсий. – Техрон, 1371. – Б. 16.
5. Рашид Умар Аърозий. Ҳошия аъла ал-Кашшоф. –Байрут: Дор ал-кутуб ал-исламия, 2012.
6. Тўғон А. З. Волидийнинг Туркистонга илмий сафари. "Тарихда усул" асаридан А. Зоҳидий таржимаси.–Тошкент, 1997. – Б. 135

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Мустаева Руслана Дамировича

Независимый соискатель Ферганского государственного университета

Orcid: 0009-0000-8944-4975

Аннотация:

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы исследования социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов, герменевтические основы их социально-этических взглядов, а также воспитательное значение социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов в Новом Узбекистане.

Ключевые слова:

эпоха Тимуридов, исторические, социально-культурные условия, социальная среда, социально-нравственные взгляды, философия, справедливость, научно-методологическая основа, воспитание, деятельность, герменевтическая основа, историко-философский анализ.

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE SOCIO-ETHICAL VIEWS OF THE TIMURID PERIOD THINKERS IN NEW UZBEKISTAN

Mustaev Ruslan Damirovich

Independent researcher at Fergana State University

Orcid: 0009-0000-8944-4975

Abstract:

This article examines the theoretical and methodological foundations of researching the socio-ethical views of Timurid period thinkers, the hermeneutic foundations of their socio-ethical views, and the educational significance of the socio-ethical views of Timurid period thinkers in New Uzbekistan.

Keywords:

Timurid period, historical, socio-cultural conditions, social environment, socio-ethical views, philosophy, justice, scientific and methodological basis, educational, activity, hermeneutic basis, historical and philosophical analysis.